

**UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY
OF WORLD LANGUAGES**



**АРАБСКИЙ ЯЗЫК В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ:
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ
ОБУЧЕНИЯ**

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

**"اللغة العربية في عصر العولمة : مناهج
وأاليب تدريس مبتكرة"**

المؤتمر العلمي والعملي الدولي

**ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF
GLOBALIZATION: INNOVATIVE APPROACHES AND
TEACHING METHODS**

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE





GI DE MOPASSAN ASARLARI TARJIMALARIDA RANGLAR VOSITASIDA HOSIL BO'LGAN FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Hojiyeva Gulchehra Salimovna,

*BuxDU Fransuz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)*

Xamdamov Temur Doniyor o'g'li,

Buxoro davlat universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o'rni, xususan, ranglar vositasida hosil bo'lgan frazeologizmlarning yasalishidagi leksik-semantik o'ziga xosliklar fransuz adibi Gi de Mopassanning "Bel Ami" romani va uning I. G'afurov tomonidan qilingan tarjimasi ("Azizim") asosida aniqlangan iboralardagi qiyosiy-chog'ishtirma xususiyatlar ikki noqardosh til: fransuz va o'zbek tillari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Frazeologik birlik, ibora, quloqlarigacha qizarib ketmoq, à l'oeil noir, rougit jusqu'aux oreilles, la figure rose.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль фразеологизмов в лингвистике, в частности, лексико-семантические особенности образования фразеологизмов, образованных с помощью цвета, анализируются сравнительно-сопоставительные особенности словосочетаний, определяемые на основе двух неродственных языков: французского и узбекского на основе перевода романа французского писателя Ги де Мопассана «Bel ami» («Милый друг» – «Азизим»).

Ключевые слова. Фразеологизм, словосочетание, краснеть до ушей, à l'oeil noir, rougit jusqu'aux oreilles, la figure rose.

Annotation. This article analyzes the peculiarities of the lexical-semantic nature of phraseological units, particularly those formed through color expressions. The comparative characteristics of phraseological features are examined through the example of the novel "Bel Ami" by the French writer Guy de Maupassant and its translation into Uzbek by I.G'afurov ("Azizim").

Key words: phraseological unit, expression, turning shy with ears burning, à l'oeil noir, rougit jusqu'aux oreilles, la figure rose.

Ma'lumki, frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zlarning turg'un birikmasidir. Ular tilshunoslikda frazeologizm, frazeologik yoki turg'un ibora, frazeologik birikma va ibora kabi bir nechta nomlar bilan ataladi. Frazeologik birlik (keyingi o'rindarda: FB)lar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi

murakkab vositalar bo‘lib, ular badiiy, siyosiy, publitsistik matnlarning ifodaviy ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shuning uchun ham iboralarni o‘rganish stilistikada muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransuz adabiyotida betakror ijodi bilan munosib o‘ringa ega adib Gi de Mopassanning “Bel Ami” (“Azizim”) romani nafaqat o‘tkir syujeti, balki personajlarning hayotiyliigi, badiiy tasvir vositalarining go‘zalligi, xususan iboralardan o‘rinli foydalanilganligi bois jahon adabiyotining nodir durdonalari sirasidan joy olgan.

Tilshunoslikda asar matni – kontekst xususiyati tarjimon uchun tayanch nuqta hisoblanib, tarjimonning qaysi usul yoki vositadan foydalangani ham shunda aniqlanadi, demak tarjimani tadqiq etish va baholashda bu asosiy me‘zon bo‘la oladi. Mazkur me‘zonga tayangan holda tadqiqot davomida Gi de Mopassanning “Bel Ami” (“Azizim”) asari kontekstidan olingan ranglar vositasida yasalgan bir necha FBlar va ularning tarjimada berilishi yuzasidan qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Quyida ana shu tahlildan namunalar havola etiladi:

1. Asliyatda: *C’était une grosse brune à la chair blanchie par la pâte, à l’œil noir, allongé, souligné par le crayon, encadré sous des sourcils énormes et factices.*

O‘zbek tilida: Xotin loabar, sochlari qora, ko‘zlariga surma tortgan, qoshlarini payvasta qilib bo‘yagan, yuzlariga upa-elik surib olgandi.

Ushbu misolda uch xil (“brune”-jigar rang, “blanc”-oq va “noir”-qora) rang bir gapda ishtirok etib, shulardan faqat ikkitasi ibora hosil qilmoqda. Fransuz tilidagi *“une grosse brune”* iborasi o‘zbek tilida “loabar, sochlari qora” tarzida o‘giriladi va bunda faqat fransuz tilidagi misol FB bo‘la oladi, iboradagi “brune”, ya‘ni “jigar rang” kontekstda “sochlari qora” ma‘nosini ifodalab kelmoqda. *“À l’œil noir”* iborasi esa o‘zbek tilida “ko‘zlariga surma tortgan” tarzida berilgan bo‘lib, iboralar asosida bitta obraz yotadi – “qora ko‘z”.

Ta‘kidlash joizki, sinonimik boylik jamiyat taraqqiyotining har bir jabhasidagi madaniyat taraqqiyotini, uning etnik va estetik qimmatini, ma‘naviy ehtiyojini, badiiy janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. “Azizim” romanidan olingan quyidagi misollarda ham sinonimiyaning yorqin namunasini ko‘ramiz:

2. Asliyatda: *Il rougit jusqu’aux oreilles, ne sachant plus que dire.*

O‘zbek tilida: Dyurua nima deb javob berishini bilmay qizarindi.

3. Asliyatda: *Il avait rougi jusqu’aux cheveux.*

O‘zbek tilida: Dyuruaning lavlagisi chiqib ketdi.

2 va 3-misollarga asoslanib, bir FBning turli xil shakllarga egaligi bir qancha yangi iboralar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi iboralarni FBning variantlari deb emas, balki aslida bir xil obraz yotadigan va bir xil semantik ma‘noli sinonim frazeologizmlar deb atash mumkin. Mazkur o‘rindagi barcha iboralar rangga oid so‘zlar bilan hosil qilingan va aytish joiz, faqatgina fransuz tilidagi FBlar inson tana a‘zolari (quloq, soch) bilan ifodalangan. O‘zbek tilidagi 1-ibora “qizarinmoq” fe‘li bilan yasalgan bo‘lib, bizningcha, ushbu o‘rinda “qulog‘igacha qizarib ketmoq” FBi qo‘llansa, gapdagi uslubiy bo‘yoqdorlik yanada ortgan bo‘lar edi.



3-misoldagi iboraning benihoya kuchli obrazlilikka asoslangan hamda *qizarmoq* fe'li o'rnida metaforik ibora – *lavlagisi chiqib ketoqdan* foydalanilganligi o'zbek tarjimonining yuksak mahoratidan dalolat beradi.

4. Asliyatda: Laurine courait maintenant, s'abandonnait tout à fait au plaisir de ce jeu nouveau et, **la figure rose**, elle se précipitait d'un grand élan d'enfant ravie, à chacune des fuites, à chacune des ruses, à chacune des feintes de son compagnon.

O'zbek tilida: Yangi o'yinga qiziqib qolib, **loladay qizarib ketgan** Lorina endi xonani chir aylanib quvalar, charchoq nimaligini bilmas, Dyuruaning sho'xliklari, ayyorliklari, aldoqchiliklarini ko'rib xonani boshiga ko'tarib qah-qah urardi.

Mazkur o'rinda ham o'zbek tilidagi frazeologizm fransuz tilidagi iboraga monand o'girilgan, deyish mumkin. Ayniqsa, o'zbek tilidagi FB metaforik usulda tarjimaga tortilgan va rang vositasida holatga ishora qiladi. Garchi *rose* – *pushti rang* ma'nosiga ega bo'lsa-da, o'girmada *qizil* rangni ifodalab kelganligi, ikki xil rangning tarjimalarda ba'zan vazifadosh bo'lishi mumkinligini ko'radi.

Badiiy so'z ustalari juda ko'p hollarda ma'lum stilistik maqsadlarni ko'zda tutib, o'z asarlarida badiiylikni kuchaytirish uchun FB larni ularning ma'nosiga mos kelmaydigan matnlarda qo'llaydilar, natijada turg'un ma'noli frazeologizmlar kontekstda o'z ma'nosini o'zgartiradi – kontekstual ma'no kasb qiladi. Masalan, **Avoir le (du) noir (être dans ses noirs)** – "cheksiz qayg'uda bo'lmoq, tushkun kayfiyatda bo'lmoq, yomon kayfiyatda bo'lmoq" fe'llari asosida fikrimizga izoh beramiz.

5. Asliyatda: Il reprit:

– Qu'importe, d'ailleurs, un peu plus ou un peu moins de génie, puisque tout doit finir!...

– **Vous avez du noir**, aujourd'hui, cher maître.

O'zbek tilida: U davom etdi:

– Shunisi ham borki, – deb davom etdi u, – sening talanting bormi, yo'qmi – baribir emasmi, oxiri hammasi yo'q bo'ladi!

– Bugun **kayfiyatingizning mazasi yo'q**, muhtaram ustoz.

O'zbek tilidagi *kayfiyatingizning mazasi yo'q* frazeologizmini *negadir tushkun kayfiyatdasiz* shaklida berilsa, ham uslubiy jihatdan, ham mazmunan to'g'ri tarjima amalga oshirilgan bo'lar edi. Chunki *mazasi yo'q* birikmasini uslubiy jihatdan *sog'ligining mazasi yo'q*, *topish-tutishi (daromadi)ning mazasi yo'q* kabi FB larda qo'llash o'rinlidir. Garchand bu holat frazeologik normaning buzilishi bo'lsa-da, keltirilgan o'girma o'ziga xos tarzda kerakli ma'noni ifodalay olgan hamda frazeologizmlarni individual (o'ziga xos) o'xshatish (tilda faqat yozuvchining o'zigagina tegishli bo'lgan, qiyoslash usuli)ga misol bo'ladi.

Xulosa o'rnida frazeologik birliklarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishidan qat'iy nazar, ular yagona umumiy ma'noga birlashadi va emotsional-ekspressivlikni ifodalaydi. Agar erkin so'z birikmalari nutq davomida yaratilsa, turg'un so'z birikmalari, ya'ni iboralar nutq davomida yaratilmay, tayyor holda qo'llaniladi. Ular ba'zan so'zga, so'z birikmasiga va ba'zan butun bir gapga teng ma'noni anglatishi yoki shu birliklar bilan ifodalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyeva G.S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023.
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil.f.dok...dis.: 10.02.02. O'zb.FA Tilshunoslik instituti, – Toshkent, 1991.
3. Mopassan Gi de. Hayot. Azizim. Novellalar. I.G'afurov tarj., G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, – Toshkent, 1987.
4. O'rmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. Filol.f.nom.diss. – Toshkent, 2008.
5. Suvonova N.N. Frazeologiyaning sistem-satx birligi sifatidagi talqini (fransuz tili materialida) fil.f.nom.disser. – Toshkent, 2008.
6. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва, 1964.
7. Maupassant Guy. Bel-Ami. – Москва, ВШ, 1981.
8. Hojiyeva G.S. Linguocultural Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages). International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). ISSN: 2509-0119. Vol. 25 No. 1. February 2021, pp. 09-15 <http://ijpsat.es/index.php/ijpsat/article/view/2746>
9. Gulchehra Hojiyeva. NATIONAL IDENTITY AND LINGUISTICAL ANALYSIS OF TRANSLATION OF ART TERMS IN UZBEK LANGUAGE. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. P-ISSN: 2204-1990. Vol. 27, No. 2, 2021. Pages 1651-1660. DOI: 10.47750/cibg. 2021.27.02.174 https://www.cibgp.com/article_9597.html
10. Hojiyeva G.S. "San'at" terminining fransuz va o'zbek tili lug'atlari asosida lingvo-madaniy tahlili. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: muammo, yechim va istiqbollar. – Buxoro, 2021. – B.62-68. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
11. Hojiyeva, G. (2023). FRENCH SHIFONEMAS IN THE ARTISTIC FIELDS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).
12. Hojiyeva, G. (2023). ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ САНЪАТ ТЕРМИНЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).
13. Salimovna, H. G. (2022). In the Translation of Language Units of Art Lexico-Semantic Properties (on the Example of French and Uzbek). Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
14. Hojiyeva, G. (2022). ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ ИСКУССТВ (на примере французского и узбекского языков). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 19(19).
15. Hojiyeva, G. (2020). TERMINOLOGIYA VA TERMINLARNING MILLIY-MADANIY TADQIQI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

F.L. Ashurova. Лингвокультурные компоненты в семантике афоризмов в английском, русском и узбекском языках	345
M.I. Kurvonbekov, M.M. Alijonova. The role of ai and their importance in teaching foreign languages	351
Y. Shukurov, F. Muhammadjonov. Chet (arab) tilini o‘qitish va o‘rganishda zamonaviy uslublarni shakllantirish	354
X.E. Batirova. Ingliz tilida kardiologiya terminologiyasining yasalish va funksional xususiyatlarini o‘rganish metodlari.....	359
D.Sh. Muminova. The importance of inductive approach in teaching grammar	364
U.E. Tukhtaeva, S.T. Gaziyeva. Modern and specific approaches to assessing primary school pupils in a foreign language	368
A.R. Abdazova. Importance of foreign languages in journalist’s activity	371
Y.E. Abdurahmonov. Effectiveness of modern methods in developing listening comprehension skills of nonphilological students in English	374
M.H. Toshpo‘latxonova. Chet tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va jahon tajribasi.....	378
Sh.F. Jumyazova. Termin tushunchasi va terminologik birliklarning turlari	381

IV. ZAMONAVIY TARJIMASHUNOSLIKNING YANGICHA TENDENSIYALARI

I.M. Tuxtasinov. Translation strategies of stylistic devices in literary texts	386
Sh.N. Abdullaeva. The significance of financial discourse in translation.....	391
Sh.Sh. Choriyeva. Badiiy tarjimada yutuqlar va muammolar	395
U.R. Yo‘ldoshev. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimaning morfologik xususiyatlari	399
P.T. Рамазанова, Ф.М. Магамадова. Сложности в локализации программных решений для арабоязычного региона	404
O‘R. Karimova, U.R. Yo‘ldoshev. Badiiy tarjima va uning o‘ziga xos xususiyatlari	409
G.S. Hojiyeva, T.D. Xamdamov. Gi De Mopassan asarlari tarjimalarida ranglar vositasida hosil bo‘lgan frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari	414
Dr. Shifaa Mohammed Abdullah. Advancing contemporary Arabic-English-Arabic translation: addressing common errors in practice.....	419